

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Madrimova Guli Sanjarbekovna
UrDPI Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va
Huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi
+998-88-603-03-02

Gulimadrimova36@gmail.com

Ilmiy rahbar: Djumaniyazova Maryamjon
Urganch davlat Pedagogika instituti
“Milliy g'oya va falsafa” kafedrası
O'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada raqamli texnologiya qanday ma'noni anglatishi, raqamli texnologiyalarning insonlar hayotidagi o'rni, davlatimiz rahbari tomonidan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish to'g'risidagi qonun va farmonlari, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

Аннотация:

В этой статье что такое цифровые технологии, роль цифровых технологий в жизни людей, законы и указы главы нашей страны о развитии цифровых технологий и внедрении цифровых технологий в систему образования, роль цифровых технологий, в образовательном процессе предоставляется информация о рни.

Kalit so'z:

Raqamli texnologiyalar , ta'lim tizimi, ta'limda raqamli texnologiyalar , qarorlar, raqamli ta'lim .

Ключевые слова:

Цифровые технологии, система образования, цифровые технологии в образовании, решения, цифровое образование.



Raqamli texnologiyalar (inglizcha: DIGITAL TECHNOLOGY) – signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan texnologiya¹. Boshqacha qilib aytganda raqamli texnologiyalar koflashtirilgan yani raqamli signallar yordamida uzatiladigan axborotlar muayyan vaqt oralig‘ida olish imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi.[1]

Bugungi kunda har bir rivojlanayotgan davlatlar turli sohalarga yangi texnologiyalar, yangiliklar kiritmoqda, xususan ta’lim tizimiga ham. Chunki bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri yoshlarni har tomonlama yetuk bilim sohibi bo‘lib voyaga yetishlarini taminlash. Ularga ilmiy jihatdan ham, kompyuter-texnologik jihatdan ham mukammal bilim berish lozim. Shu tufayli davlatlar ta’lim sohasiga katta mablag‘lar ajratmoqdalar. Bu borada mamlakatimizda ham ko‘pgina ishlar va istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi zamonaviy yoshlarni ilm-ma’rifatga, kitobxonlikka jalb qilish uchun ham raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga jalb qilinmoqda. O‘qitish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish qog‘ozbozlikdan uzoqlashishga yordam berdi, yani barcha o‘quv hujjatlari, fan dasturlari, tegishli fanlarning ishchi o‘quv dasturlari, guruh jurnallari, o‘quv materiallari onlayn shaklga o‘tkazildi. Kutubxonalarda ham noyob kitoblarni, kam sonli nashrdan chiqqan kitoblarni onlayn nashrdan foydalanish mumkin. Imkoniyati cheklangan yoshlar dars mashg‘ulotlari, sinov va imtihonlarda internetga bog‘lanish orqali onlayn qatnashish imkoniyati mavjud.

¹. https://uz.wikipedia.org/wiki/raqamli_tehnologiya_asoslari.

Muhtaram Prezidentimizning 2020-yil 17-martda “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4642 sonli² qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta’limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Shu yil 23-martdan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladi. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlariga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan³. Mazkur nizomda esa kredit- modul tizmiga oid tushunchalar berib o‘tilgan. Unda ko‘ra:



GPA (Grade Point Average)- ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblablanadi.

$$GPA=K1U1+K2U2+K3U3...+KnUn:K1+K2+K3...+Km \text{ ha teng}$$

Bunda

K – har bir fanning modulga ajratilgan kreditlar miqdori.

U – har bir fanning modul bo'yicha talaba to'plagan baho.

Bundan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish jarayoni osonlashadi . Ta'lim beruvchilarga bunday vositalarda yani internetga ulangan televizorlar, noutbuk, kompyuterlardan foydalanib dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirib, yoshlar diqqatini jalb qilishga ham yordam beradi.

Neil Morras, Lids universiteti elektron ta'lim instituti direktori “ Raqamli texnologiya o'rganish va o'qitishni tubdan o'zgartirib, uni ilgari bo'lmagan narsaga aylantiradimi?” deyilgan savolga “ Raqamli texnologiyalar butun ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda”- deb javob beradi. Ajoyib qayta ishlash kuchi va funkcionalligiga ega mobil qurilmalar va boshqa gadjetlarning tarqalgani talabalarning nafaqat o'qituvchi balki butun dunyo bo'ylab tengdoshlari, jismoniy shaxslar va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan o'quv mazmuni bilan o'zaro aloqada bo'lishlarini anglatadi. Ular buni raqamlashtirishdan oldin mavjud bo'lmagan turli usullar bilan amalga oshirishlari mumkin. Bu olimning fikricha hozirgi vaqtda global miqyosdagi odamlar global jamoa turli usullar va texnologiyalarda o'rganishi mumkin bo'lgan tub o'zgarishdir[2]. Raqamli inqilob va raqamli makon imkoniyatlarning jamiyatga, insonga va sivilizatsiya rivojlanish istiqbollari ta'siri katta. Aynan mana shu ta'sir falsafiy – uslubiy tahlilni va umuman ta'limni, xususan, oliy ta'limni rivojlantirish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi [3].

Research Science and
Innovation House



Foydalanilgan adabiyotlar:

1.S.M.Ilhomjon.”Talimda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari”.
Kokand University.153-bet.

2.L.V.Klochek. Mustaqil rabotexnikani tashkil etishning psixologik jihatlarini talabalar o‘ryasida//Mustaqil rabotexnika va talabalarni axborot -metodik, taminlash muammolar, metodologiya: Uslubiy byulleten.2-son. Kirovograd.

3.K.Gavhar.”Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar “. 246-bet.

4. <https://lex.uz/ru/docs/-4767514>.

5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul_tizimi.



Research Science and Innovation House